

TARBIYA JARAYONIDA SHAXS ONGINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

X.Orziqulov *Qo'qon universiteti*

pedagogika va psixologiya kafedra v.b dotsenti

xusnidinorziqulov@gmail.com

D.Abdurashidova *Qo'qon universiteti*

turizm va iqtisodiyot fakulteti

xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

duro6abdurashidova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur mavzu tarbiya prinsiplarining mazmun-mohiyati va ularning pedagogik jarayondagi o'rnini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, ayniqsa, shaxs ongiga ta'sir etishda pedagogik nuqtai nazardan chuqur tahlil qilinadi. Tarbiya jarayonining asosiy prinsiplari — ilmiylik, izchillik, hayot bilan bog'liqlik, individual yondashuv, faoliyat va ongning birligi kabi ustuvor yo'nalishlar asosida talaba, o'quvchi yoki tarbiyalanuvchining ongli ravishda ijtimoiy qadriyatlarni egallashi ta'minlanadi. Ushbu maqola pedagoglar, psixologlar, talabalar va tarbiyachilar uchun shaxsni tarbiya qilish va shakllantirishda kerakli manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tarbiya, pedagogik jarayon, shaxs, tarbiya, ilmiylik, izchillik, individual yondashuv, talaba, ijtimoiy qadriyatlar, pedagog, psixolog, manba.

Annotation: This topic is devoted to exploring the essence of educational principles and their role in the pedagogical process, with a particular focus on analyzing their impact on the development of individual consciousness from a pedagogical perspective. The core principles of education — such as scientific approach, consistency, connection with real life, individual approach, and the unity of activity and consciousness — serve as key directions that ensure students, learners, or trainees consciously internalize social values. This article serves as a valuable resource for educators, psychologists, students, and mentors in guiding and shaping personality development.

Keywords: education, pedagogical process, personality, upbringing, scientific approach, consistency, individual approach, student, social values, educator, psychologist, resource.

Kirish

“Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim — yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga

sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.”

Hozirgi rivojlanib borayotgan globallashuv davrida yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib yetishtirish bu har bir jamiyat oldida muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Insonning hayotidagi dastlabki qadryatlar, ong, ma'naviyat aynan ta'lim va tarbiyada shakllanadi. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogika yoshlarni faqatgina bilim olishini emas balki, ularning ichki dunyosini, fikrlashini va axloqiy me'zonlarini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu mavzu biz uchun tarbiyaviy jarayonda shaxs ongiga pedagogik ta'sir ko'rsatilishi, yondashuvlarning samaradorligi haqida fikr yuritamiz.

Shaxs ongini shakllantirish – bu o'qituvchidan, ota-onadan, jamiyatdan chuqur bilim, nozik pedagogik sezgirlik, psixologik yondashuv va individual yondashuvni talab qiluvchi jarayondir. Bu jarayon davomida inson o'zini angelaydi, qadriyatlar tizimini hosil qiladi, jamiyatda tutgan o'rni va javobgarligini his etadi. Aynan shu bosqichda pedagogik yondashuvlarning roli beqiyosdir.

Bugungi ta'lim-tarbiya sohasida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, humanistik pedagogika, faol va interaktiv metodlar, ijtimoiy-madaniy kontekstni hisobga olgan ta'lim, hamda tarbiya jarayonini izchil rejalashtirish kabi zamonaviy yondashuvlar keng qo'llanmoqda. Har bir yondashuvning mohiyati shundaki, u shaxsning mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashish va o'ziga bo'lgan ishonchini rivojlantirishga xizmat qilishi kerak.

Asosiy qism

Tarbiya jarayonining maqsadi shundaki, turli tarbiya metodlarini muomalaga kiritib, ulardan ixcham, o'zgaruvchan tarzda, turlicha holatlarda turlicha foydalanishga erishiladi. Bu o'rinda tarbiya jarayonining maqsadi tarbiya metodlaridan foydalanishga dialektik yondashuvdan iborat bo'lib, ko'plab holatlar pedagogik jarayon sodir bo'lishidan, tarbiyalanuvchining yosh xususiyatlaridan, ularning o'sib borayotgan intilishlaridan, ular faoliyatining ichki intilishidan, muomaladagi o'zgargan holat va boshqalardan kelib chiqadi.

Shaxs ma'naviy hayoti va faoliyatida tor doiradagi qarashlar hamda ilmiy ong o'rtasida doimo kurash ketadi. Faoliyat va munosabat sohasining kengayishi, insonning o'z ichki dunyosiga bo'lgan shaxsiy ehtiyojining ortib borishi, hayotida yangi hodisalar bilan ro'baro' bo'lishi o'quvchidan chuqur mushohada yuritishni, muammolarni hamma narsaga intilish orqali hal etishni talab qiladi. Paydo bo'layotgan savollarga, muammolarga javob izlash shunga olib keladiki, o'quvchining ong zahirasi, qarashlari, tushuncha va dunyoqarashi, baho berishi, xulosa chiqarish imkoniyati yetarli emasligi ma'lum bo'ladi. Bu o'rinda shaxs ongiga yangi bilimlar, talablar, me'yor, qoida va qonuniyatlarni kiritishda tarbiyachi yordamga keladi. [1]

Mashxur ustozlarimizdan birining tavsiyasini esladim: “bir Muallim yaxshi inson yetishtirish uchun yashashi kerak. O'quvchilar qanchalik qo'ldan boy berilsa

xam, ularning qalbiga yo'l topib, to'g'ri yo'nalish bera olish kerak. Arazlagan, gina saqlagan, urgan, quvgan va qo'pol insonlardan muallim chiqmaydi.[2] Ustozning bu tavsiyasi — nafaqat bir o'qituvchining, balki har qanday tarbiyachining ichki dunyosi, kasbiy pozitsiyasi qanday bo'lishi kerakligini aniq ko'rsatadi. "Muallim yaxshi inson yetishtirish uchun yashashi kerak" degan jumla — bu muallimlik kasbi oddiy kasb emas, balki butun umrga tatigulik fidoyilik, sabr, mehr va ichki poklik talab qiladigan hayot tarzidir, degan g'oyani ilgari suradi. Bu tavsiya har bir pedagogga eslatma bo'lishi lozim: **haqiqiy ustoz — bu darslikdan dars o'rgatuvchi emas, qalbdan qalbgacha yo'l topuvchi insondir.** U faqat o'rgatmaydi, balki o'rnatib bo'ladi. Bunday yondashuv pedagogik faoliyatda eng muhim yutuqlarga erishishga xizmat qiladi.

Farzandingni baxtli va boy ko'rishni istasang, uning qalbini pok, aqlini o'tkir qilib tarbiyalash. (Hadis) Olib borilgan izlanishlar va turli oilalar hayotini kuzatishlar asosida komil farzand tarbiyalashning asosiy omillari ishlab chiqildi. Bu omillarga tayangan holda farzand tarbiyalagan har bir oila kutilgan natijalarga erishish tabiiy. Mazkur omillarni ishlab chiqishda milliy ma'naviy merosdan, xalqimizning boy tarixiy tajribasidan, an'analari, urfodatlaridan foydalanildi. Ulug' bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy farzand tarbiyasida muhim o'rin tutuvchi quyidagi uch jihatni ta'kidlab o'tadilar: irsiyat, muhit, tarbiya. Bobomiz Amir Temur ham farzand tarbiyasida Beruniyning shu omillariga tayanganlar. U1 zot o'g'illariga kelin tanlash masalasini davlat ishi va siyosati darajasiga ko'targan. Kelin bo'lmishning yetti pushtigacha tekshirib, surishtirganlar. Ular hatto qizlarining, kelinlarining, kelin bo'lmish qizning badanlarini ko'rishni buyurganlar. Bu nafaqat o'g'limning rohatfarog'ati uchun kerak, balki bo'lg'usi zurriyotlarimning salomatligi, naslimning buzilmasligi uchun zarurdir, - deganlar. Farzand tarbiyasida ijtimoiy muhit alohida rol o'ynaydi. Bunda ichki muhit hisoblanuvchi oilaviy muhitni (shaxsiy 43 oilaviy muhit qarindosh-urug'lar muhiti, quda-andalar muhiti), tashqi muhitlardan bog'cha, maktab, mahalla, ko'cha-ko'y, yor-do'stlar, radio, televideniye tafovut qilish lozim. Bu sanab o'tilgan muhitlar ichida oilaviy muhit, ayniqsa, shaxsiy oilaviy muhit (ota-ona, aka-uka, opa-singillar muhiti) farzand tarbiyasida eng asosiy, hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu muhit farzand tarbiyalashda faol ish olib borish uchun eng katta imkoniyatlar mujassamlashgan alohida muhitdir. Bu imkoniyatlar oila farzand tarbiya o'luvchi dastlabki makon ekanligi, farzand umri asosiy qismining oilada o'tishi, muloqot va nazoratning bevositaligi, xo'jalik yuritishning umumiyliigi va boshqa bir qator shu muhitga xos bo'lgan jihatlar bilan belgilanadi. Shaxsiy oilaviy muhit sharoitida farzand tarbiyasini bevosita boshqarish mumkin. Farzand tarbiyasida boshqa oilaviy muhitlarning ham ta'sirini inobatga olib borish lozim. Bunda nazorat qilish, kuzatib borish, bahslar tushuntirishlar olib borish usullaridan foydalanish lozim. Bog'cha farzand tarbiyasidagi muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Unda bolaning rivojlanishi uchun muhim bo'lgan ovqatlanish, dam olish tartibi joriy qilinganligi, tashqi dunyo haqidagi

dastlabki tasavur va bilimlarning berilishi katta ahamiyatga ega. Oilada bu ko'nikmalar, bilimlar mustahkamlanib rivojlantirilib borilishi lozim. Bog'cha sharoiti bilan tanishib farzand haqida, uning yurish-turishi, o'zini tutishi, o'ziga xos xususiyatlari haqida tarbiyachilar bilan suhbatlashib, maslahatlashib turish lozim. Ta'lim muassasasi yosh bo'g'inining ta'lim va tarbiyasida eng muhim o'rin tutuvchi ulug' makondir. Bu muhitda bola o'zining insoniylik xislatlariga ega bo'lib, shakllanib borishi bilan birga aql-zakovat, idrok, egasi bo'la boradi, hayotda o'z o'mini topa boshlaydi, kelajakda mustaqil hayot sari o'z yo'lini qo'ya boshlaydi. Ota-onaning farzand tarbiyasi borasida bu bosqichdagi vazifa va burchlari o'z jigargo'shasining kelajakda 44 barkamol inson bo'lib yetishishi uchun uning har bir qadamini kuzatib, tahlil qilib borish, oilada maktabda olgan bilim va hayotiy ko'nikmalarini to'ldirib, lozim bo'lganda izga solib, tuzatib borish, normal bilim olishi, rivojlanishi uchun yetarli ma'naviy, fikr va milliy sharoitlar yaratib berish, sodir bo'ladigan hayotiy muammoli masalalar yuzasidan atroflicha tushuntirish ishlarini olib borish, shu bilan birga unga o'z faoliyatini muayyan reja asosida olib borishi, o'z muammolarini iloji boricha o'zi hal qilishi, mustaqil ravishda to'g'ri va maqbul qarorlar qabul qilish borasida ko'nikmalar hosil qilib borishi uchun erkinlik berish lozim. Ana shundagina u istiqbolida o'z aql-idroki, bilimi, hayotiy ko'nikmalari asosida turmushda surinmay, adashmay jamiyatning va albatta ota-onaning ham to'laqonli, ilg'or, suyukli farzandlaridan biri bo'lib yetishadi, baxtli, o'z hayotidan mamnun bo'ladi, hurmat-izzat, obro'-etiborga sazovor bo'ladi. [3]

Pedagogika -ta'lim va tarbiya jarayonini yaxlitlikda o'rganadigan fan sohasi. Pedagogika (yunoncha paidagogike bo'lib, paida -«bola» va gogike -«yetaklayman») ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan. Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati -uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratganligi bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Didaktika (ta'lim nazariyasi, yunoncha didaktikos «o'rgatuvchi», didasko «o'rganuvchi») ta'limning nazariy jihati, ta'lim jarayonining mohiyati, qonun va qonuniyatlari, tamoyillari, o'qituvchi va o'qituvchi faoliyati, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari kabi masalalarni tadqiq etadi. Tarbiya nazariyasi -pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayonining mazmuni, tarbiyatlari, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish masalalarini o'rganadi. Ijtimoiy tarbiya fuqarolik, aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, iqtisodiy, ekologik tarbiya kabi yo'nalishlarda tashkil etiladi. Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar

mazmuni, davlat va jamiyat rivojlanish strategiyasi, uning hayotida yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma'naviy va axloqiy talablariga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, ilg'or xorijiy tajribalar asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratiladi: Pedagogika fanining obyekti - yaxlit pedagogik jarayon. Pedagogika fanining predmeti - ta'lim-tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, ma'lumot, shakllantirish, rivojlantirish. Shaxs -psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi. Tarbiya -muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulqatvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Ta'lim -o'quvchilari nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, kompetentlikni tarkib toptirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish demakdir. Bilim -shaxsning ongida tushunchalar, umumlashmalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui. Ko'nikma -shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish layoqati. Malaka -muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli. Kompetensiya -egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish qobiliyati. Ma'lumot -ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui. Shakllantirish -shaxsda barqaror xususiyat va sifatlarni belgilangan talab va me'yorlar asosida tarkib toptirish jarayoni. Rivojlanish -shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon. [4]

Mustaqil shaxsni shakllantirish, uni jamiyat va davlat manfaatlari yo'lida ijtimoiy-foydali mehnatga layoqatli kadr darajasigacha tarbiyalash-ko'p qirrali va murakkab jarayondir. Bu borada yurtboshimiz I.A.Karimovning quyidagi iborasini esga olish o'rinlidir: “-Kadrlar tayyorlash uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, u har birimizdan astoydil, betinim va mashaqqatli mehnatni talab etadi.” Darhaqiqat, bir tomondan, barcha davlat tuzilmalari hamda ijtimoiy kutubxonasi mo'iy tashkilotlar va, ayniqsa, ta'lim tizimi mutasaddilarining zimmasiga bu masala yuksak mas'uliyat yuklaydi. Bunda ta'lim tizimini takomillashtirish va uning mazmunini

chuqurlashtirish ham da ko'pgina tashkiliy-tarbiyaviy ishlar nazarda tutiladilkkkinchi tom ondan esa, bevosita ushbu masalani amalga oshirishga burchli bo'lgan pedagog kadrlar zaxirasini shakllantirish va ularni zamon talablari bilan hamnafas tarzda kasbiy faoliyat yuritishga tayyorlash davlat va jamiyat zimmasidagi ulkan ijtimoiy vazifadir. Kadrlar tayyorlash bilan bog'liq joriy va istiqboldagi vazifalar quyidagilardan iborat: Birinchidan, erkin tafakkur qila oladigan shaxsni, mustaqillik va demokratiya g'oyalariga sodiq bo'lgan ongli fuqaroni, o'z Vatanining jonkuyari sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotga ongli ishtirok etishga, ijtimoiy jarayonga faol ta'sir ko'rsatishga, mamlakat taqdiri uchun zimmasiga mas'uliyat ola bilishga qodir shaxsni kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratish; Ikkinchidan, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga, tub mamlakatdagi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish ishiga demokratiya asoslarini joriy etish jarayonlarini jadallashtirish, tafakkur va bahslashish madaniyatini rivojlantirish, shaxsning ichki dunyosini boyitish, binobarin, yangicha ijtimoiy qadriyatlar va munosabatlarni shakllantirishdir. Boshqacha aytganda, yosh avlodda yangicha ong shakllanishi uchun barcha shart-sharoit yaratilmog'i kerak; Uchinchidan, yosh avlod milliy istiqloq g'oyasini anglab olishi, bu g'oyaning har bir fuqaro uchun, Vatanning obod va farovon bo'lishi uchun hayotiy zaiurat ekanligiga ishonch hosil qilish uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimini ro'yobga chiqarish lozim. Tabiiyki, bu uzoq davom etadigan, barcha davlat tuzilmalari va jamoat tashkilotlarining, eng awalo, uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarining faoliyati va pedagogik sohadagi ishlar mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etadigan murakkab jarayondir. Yoshlarni barkamol qilib yetishtirish jarayonida shaxsning tarbiyasi va har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga e'tiborni kuchaytirish va ta'lim sohasida shaxsning tarbiyasi va har tomonlama rivojlanishiga ustunlik berishni ta'minlashdan iborat. Ta'lim-tarbiya jarayonining uch tarkibiy birligi — tarbiya, ta'lim, shaxsni rivojlantirish to'liq darajada amalga oshirilishiga erishish lowwww.ziyouz.com kutubxonasi zimmasida. Ta'lim-tarbiya ishida rasmiyatchilik va beparvolik kabi illatlardan voz kechish kerak. Bu maqsadda mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan yangi uslub va vositalar ishlab chiqilishi va joriy etilishi zarur. [5]

Xulosa

Tarbiyaviy jarayonda shaxs ongini shakllantirish – bu murakkab, bosqichma-bosqich kechadigan, uzluksiz va tizimli jarayon bo'lib, unda pedagogik yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Har bir pedagogik yondashuv (shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan, tizimli, individual va differensial yondashuvlar) shaxsning ongini rivojlantirishda o'ziga xos rol o'ynaydi. Bu yondashuvlar orqali tarbiya jarayoni samarali, maqsadga yo'naltirilgan va shaxsga mos tarzda olib boriladi.

Pedagog tarbiyaviy ishlar davomida nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, yo'l ko'rsatuvchi, ruhiy-axloqiy yetakchi sifatida faoliyat yuritadi. Shu bois, pedagogik

yondashuvlarni to'g'ri tanlash va qo'llash shaxsning ongli, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faol va barkamol inson bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi. Tarbiyaning har bir bosqichida zamonaviy yondashuvlar asosida ishlash, yosh avlodda axloqiy fazilatlar, ijtimoiy ong, estetik did va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirishga yordam beradi.

Umuman olganda, shaxs ongini shakllantirishda pedagogik yondashuvlarning o'rni beqiyos bo'lib, ular tarbiya jarayonini chuqur, samarali va natijador tashkil etishning asosiy omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Orziqulov, X. (2024). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIIY PEDAGOGIK KOMPONENTLIKNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 1(5), 228-230.
2. XOLID ERTUG'RUL. O'TMISHIMDAN VOS KECHIB KELDIM. (Roman) T-: 2023-y
3. I.ALQAROV, R.MAMATQULOVA, X.NORQULOV. SHAXS VA OILA TARBIYASINING PEDAGOGIKASI (o'quv qo'llanma) T-: 2009-y
4. H.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT. (o'quv qo'llanma) T-: 2009-y
5. Orziqulov, X. (2025). BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINIF O 'QITUVCHILARINING TARBIYAVIIY FAOLIYATGA DOIR KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK SHART SHAROITLARI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 14, 109-111.
6. Orziqulov, X., & Usanov, B. (2025). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARI O 'RTASIDA EKOLOGIK ONG VA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH.". *GLOBAL MUNOSABATLAR NAZARIYASI: YOSHLARNING TARAQQIYOT G'OYALARI*" xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 1(2), 22-26.